

**EKSPORT RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA
DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI**

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti

Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish tarkibi shakllanishida birlamchi ravishda uning geografik o'rni, tabiiy resurslari va resurs salohiyati (mehnat resurslari, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqalar) muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud imkoniyatlar yetarli bo'lgan holatda, iqtisodiyotning hududiy ixtisoslashuvi shakllantiriladi hamda mamlakat aholisining va iqtisodiyot tarmoqlarini mahsulotlarga bo'lgan talabidan kelib chiqib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoniyatini beruvchi samarali ishlab chiqarish tanlanadi.

Kalit so'zlar: Strategiya, diversifikatsiya, globallash, integratsiya, eksport, raqobat

Ishlab chiqarish tarkibi tanlanganidan so'ng, bozor qonuniyatiga ko'ra xaridorlarda talab bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni boshlanadi, ya'ni uni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqaruvchi tomonidan ushbu mahsulotga bozorda talabning bo'lishi korxona daromadini ta'minlasa, mahsulotning haddan tashqari ortiqchaligi esa mavjud bozorning to'inishiga va bozorda mahsulot turlarining ortishiga olib kelishi oqibatida daromad o'sishiga teskari ta'sir eta boshlaydi. Shuning uchun, doimiy ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchining oldida bir muammo turadi, bu ishlab chiqarish yo'nalishini hisobga olgan holda daromadli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda uning ko'lalimi kengaytirgan holda davom ettirishidir.

Bunda ishlab chiqaruvchi bir turdag'i mahsulotdan olaolmagan me'yoriy daromadini boshqa turdag'i yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga ega bo'lishga harakat qiladi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinarini tashkil etish mushkuldir.

Demak raqobatbardoshlik namoyon bo'lishining asosiy yo'nalishlaridan biri – raqobatchilarnikiga o'xshash mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishdir. Mahsulotlar bozorining muayyan segmentida, raqobatchilar ishtiroti qisqarishida sotuvlar hajmini kengaytirish o'zgaruvchan konyunkturaga moslashuvga misol bo'la oladi. Bunda moddiy resurslar sarfining qisqarishi ikki yo'nalish bo'yicha boshqaruva tizimini qayta qurish bilan erishiladi.

Birinchidan, nazoratni va eng avvalo, byudjet orqali moliyaviy nazoratni takomillashtirish talab etiladi.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Ikkinchidan, boshqaruvni markazdan qochirish, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalar uchun mas’uliyatni quyi pog‘onalarga o‘tkazish lozim. Boshqaruvni markazdan qochirishning keng tarqalgan shakli bo‘lib, iste’molchiga qaratilgan guruhlarni shakllantirish va ularga o‘zini-o‘zi tashkil etish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Korxonaning iste’molchilar bilan ishlaydigan har qanday mustaqil bo‘limi, mahsulot hayotiy sikli qonuniyatlari asosida mahsulot assortimentini tezkor diversifikatsiyalash masalalarini o‘zlashtirib olishi lozim. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xilma-xilligi korxonaning moddiy-texnik darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari korxona bo‘limlari doimiy ravishda qulay bozorlarni izlashi zarur. Mustaqil bo‘limlar o‘zini-o‘zi tashkil etishining bunday shakli, korxonaning asosiy mezon – jon saqlash bo‘yicha rivojlanishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, iqtisodiy terminologiyada ishlab chiqarish jarayonida yangi yo‘nalishni tanlash yoki mahsulotning yangi turini yaratish bilan bog‘liq jarayon diversifikatsiyalashuv sifatida talqin qilinadi.

Diversifikasiya tushunchasi lotinchadan olingen bo‘lib, “diversificatio” “xilma-xil taraqqiyot” degan ma’noni bildiradi. Diversifikasiya so‘ziga hozirgi kunda umumiylar tarzda quyidagicha ta’rif beriladi. Diversifikasiya korxona (birlashma)larning faoliyat sohalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlari turlarining kengayishi, yangilanib turishidir. Diversifikasiya – bir-biri bilan texnologik jihatdan bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish turlarini bir vaqtda rivojlanishi va mahsulot turlarining ko‘payishidir.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash deganda bir yoki bir necha xildagi turdosh mahsulotni ishlab chiqarishga tayangan ishlab chiqarish tuzilmasidan, keng turdag, bir necha yo‘nalishni o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish tuzilmasiga o‘tishni tushunish mumkin. Diversifikasiyalashuv bir necha bosqichda amalga oshirilib, dastlab tarmoq doirasida ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarga ajralishi sifatida yuz berishi, so‘ngra tarmoqning o‘zida korxonalarning shakllanishi hamda ixtisoslashuvning yuzaga kelishi hisoblanadi.

A.Rumyansev fikriga ko‘ra korxona o‘z resurslari hisobiga mahsulotlar assortimentini ko‘paytirishi, yangi faoliyat sohalarini o‘zlashtirishi hisoblanadi.

F.Kotler tomonidan esa diversifikasiyaga yangi sohalarini o‘zlashtirish orqali korxonani rivojlanirish usuli sifatida qaraladi.

I.Ansoff esa ishlab chiqarishni diversifikasiyalashga yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarga kirib borish va yangi mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish jarayoni deb ta’rif beradi. Albatta bu tadbirlar hammasi ma’lum bir investitsiyalarni talab etadi.

Shunday ekan, diversifikasiya korxona strategiyasini o‘zgartirish va unga erishishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib yuzaga chiqadi.

Diversifikasiyaning strategik afzalliklari bir necha omillar bilan ta’riflanadi. Ulardan eng muhimlari quyida keltirilgan:

- ✓ sinergizm salohiyati – bu boshqaruvning yagona tizimi hamda nazorat va

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

muvofiqlashtirish hisobiga turli xildagi biznesni o‘zaro birlashuvida kuzatiluvchi xarajatlarni qisqarishi, shuningdek, kapital aylanmasining tezlashuvi natijasidir;

- ✓ biznesni axborotlar bilan ta’minlanish holatini yaxshilash, marketing tadqiqotlarini integratsiyasi;
- ✓ navbatida marketing va reklamaga yo‘naltirilgan vositalarni tejash imkoniyatini beradi;
- ✓ texnologiyalar o‘zgarishi hisobiga texnologik yutuq hamda ilmiy-tadqiqot konstruktorlik ishlanmalarini hamkorlikda bajarish sharoitini yaratadi;
- ✓ ta’milot kanallari, marketing, xizmat va sifat darajasini oshirish bo‘yicha bajariladigan ish hisobiga mahsulotlarni solishtirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiyada kuzatiladi.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni uch asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga yondashuvlar⁵

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash		
1. Ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish	2. Yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirish	3. Kapitalning jamlanishi va kengaytirilishi
<ul style="list-style-type: none"> - asosiy faoliyatga tegishli bo‘lmagan yangi mahsulot ishlab chiqarish; - mavjud korxona baza-sida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish; -mahsulot assortimentini ko‘paytirish; -bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mahsulot ishlab chiqarish 	<ul style="list-style-type: none"> -bir vaqtning o‘zida bir nechta bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va mahsulot assortimentini kengaytirish; -tijorat riskini kamaytirish maqsadida moliyaviy resurslar-ni turli xil qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish; - yangi bozorlarni o‘zlashtirish; -yangi korxonalar bilan sheriklik qilish; -xo‘jalik faoliyatini bir necha mustaqil turlarini olib borish va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> -kapitalni tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish va kengaytirish; -korxona tarkibida yangi bo‘linmalar va korxona-larni tashkil etish; -boshqa tarmoq korxonalar bilan kapitalni birlashtirish

Shuningdek, diversifikatsiya ehtimoldan yiroq bo‘lmagan xavflarni hisobga olish bilan bog‘liq mantiqiy harakterga ega bo‘lishi shart. Chunki integratsiya ham xavfli bo‘lishi

⁵ Manba: mavjud ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

mumkin. Diversifikatsiya faoliyatini, bir tomondan strategik salohiyatni amalga oshirish ehtimoli bilan, boshqa tomondan esa muvozanatlashgan iqtisodiy va texnologik natijalarga erishish sifatida qabul qilish kerak.

Bundan tashqari, diversifikatsiya kamchiliklarini yangi bozorlarga chiqish xarajatining yuqoriligi, biznesda sheriklar tanlash va diversifikatsiyada muvozanatlashuv hamda yuqori egiluvchanlikni korxona faoliyatiga jalb etish zarurati va barcha integratsiyalangan sikllar bo'yicha innovatsion faoliyatni tatbiq etish kabi omillar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Diversifikatsiya faqatgina tuzilmaviy bo'limlar holatida muvaffaqqiyatli bo'lishi mumkin:

1. Mavjud tuzilmalar va ishlab chiqarish bo'limlari imkoniyatlari doimiy qidiruvini amalga oshirish. Bu esa tabiiy ravishda biznesning yangi shakllarini o'zlashtirishga olib keladi va integratsiya muammosini hal qilishni qulaylashtiradi.

2. Yangi biznes tuzilmasini qayta tashkil qilish imkoniyatlarini baholash. Bir qator tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, taxmin etilgan biznes sohasi diversifikatsiyaga qadar jalb etuvchan bo'lishi shart emas. Yangi sohaga to'liq iqtisodiy potensiali aniqlashgunga qadar o'tish.

3. Diversifikatsiyani amalga oshirishda, asosiy biznes faoliyatida to'plangan amaliy tajribadan foydalanish. Bunda asosiy maqsad biznes subyektlarining bog'langan va kuchaytiruvchi umumiyyot potensialini tashkil etishdir.

4. Korporatsiya birligi mexanizmini (xodimlar motivatsiyasi, regional markazlarni tashkil etish, korporativ madaniyatni rivojlantirish) vujudga keltirish hisobiga hamkorlikning o'ziga xos tarafini ifodalash, diversifikatsiya ta'sirida korxonaning parokanda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xodimlar va biznes subyektlari orasidagi o'zaro gorizontal bog'liqlikni yana-da soddallashtirish uchun mukammal asos yaratishdir.

XULOSA

Eksportchi korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalashsiz barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'la olmaydi. Diversifikatsiya strategiyasi doimiy ravishda o'zgartirib, takomillashtirib borilishi zarur.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, eksportchi korxonalarda texnologiyaning rivojlanishi yangicha boshqaruv hamda marketing siyosati bilan birgalikda borishi lozim.

Eksportchi korxonalar raqobatbardoshligining ko'zlangan darajasiga mahsulotning sifati va nomenklaturasini oshirishni ta'minlay oladigan boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Unda eng maqbul strategiyani tanlash ko'p jihatdan mahsulotlar bozorining ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Eksport tadbirkorligining har xil turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va ehtiyojlarga ega. Import-eksport tadbirkorligini yo'lga qo'yishning asosiy afzalliklaridan biri jahon bozoriga chiqishdir. Tovarlarni butun dunyo bo'ylab tarqatish orqali rentabellik va o'sish salohiyati yuqori bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING TAMOYILLARI VA MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI BILAN BOG'LIQLIGI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 97-103.
2. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 314-322.
3. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 67-73.
4. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNING MILLIY JAMIYATIMIZGA TA'SIRI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 104-108.
5. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
6. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko'rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. *Miasto Przyszłości*, 54, 987-995.
7. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 535-541.
8. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 270-273.
9. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
10. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
11. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
12. Toshov, M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARINI MOLIYAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Modern Science and Research*, 3(6).
13. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje*, 47, 353-358.
14. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI.
15. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIYAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 8-14.
16. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 29-35.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

17. қизи Раҳмонқуловна, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
18. Явмутов, Д. Ш., & Рахманқуловна, Н. О. (2021). Бухоро Вилоятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 10-13.
19. Явмутов, Д. Ш., & Рахманқуловна, Н. О. (2021). Роль образования в развитии предпринимательства. *Ta'l'm va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 1(2), 23-28.
20. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA OTISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 56-61.
21. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 73-76.
22. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 19-22.
23. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 113-118.
24. Явмутов, Д. Ш., & Рахманқуловна, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 12-17.
25. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). Innovative approaches to the use of digital technologies in the economy. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 77-80.
26. Junaydulloevich, A. A., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. Business and Product Delivery in the Context of Covid-19. *JournalNX*, 1305-1307.
27. Mukhammedrizaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 90.
28. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИННОВАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 120-126.
29. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 82-89.
30. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 41-49.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

31. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 72-78.
32. Bahodirovich, X. B. (2025). O'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 47-53.
33. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKLARDADA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 29-34.
34. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 37-43.
35. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG 'I YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 165-171.
36. EI, I. (2024). MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI OMILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 168-174.
37. EI, I. (2024). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSİYANING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 175-182.
38. EI, I. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 172-180.
39. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 22-28.
40. Raxmonqulova, N. O. (2025). SAMARALI RAHBARNING XUSUSIYATLARI, LIDERLIK USULLARI VA ULARNING TASHKILOT MUVAFFAQIYATIGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 29-35.
41. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING TURLI TUZILMALARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARINING AFZALLIKLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 15-21.
42. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.
43. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 15-22.
44. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 40-46.
45. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QOLLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 54-61.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

46. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 79-85.
47. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 62-68.
48. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARX VA UNING IQTISODIY TAHLILDAGI ROLI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 86-93.
49. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 24-30.
50. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 51-55.
51. Заявитдикова, Н. М., Базарова, М. С., & Ходжиев, А. Б. (2022). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА СТРАТЕГИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 A 43*, 265.
52. Supievna, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 79-83.
53. To'rayevna, S. N. (2024). TEKNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.
54. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
55. To'rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.
56. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.
57. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSİYALARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.
58. Xudoynazarovich, S. A. (2024). CHALLENGES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 398-402.
59. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
60. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). "BUXORO SUV TA'MINOTI" MCHJ KORXONASINING UMUMIQTISODIY HOLATI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 390-398.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

61. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 284-292.
62. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 307-309.
63. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). OZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 300-306.
64. Hakimovich, T. M. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Miasto Przyszłości*, 55, 1458-1463.
65. Akbarovna, N. N. (2024). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARNI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRUVCHI YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 383-389.
66. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 278-283.
67. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KASANACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 277-282.
68. Очилов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.
69. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(1), 61-64.
70. Bustonovna, J. Z. (2024). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL SECTORS IN REGIONAL DEVELOPMENT. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 394-397.
71. Bustonovna, J. Z. (2024). DAVLAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISH YURITISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING ZARURIY SHARTLARI.
72. Jumayeva, Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH. Modern Science and Research, 3(6).
73. Bustonovna, J. Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.
74. Amanillo, R., & Azimov, B. F. (2025). ANALYSIS OF THE LABOR MARKET AND ITS IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(01), 22-27.
75. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

XUSUSIYATLARI TAHLILI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(3), 149-155.

76. AT, I. (2024). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 249-255.

77. AT, I. (2024). MINTAQALarda TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASH STRATEGIYASINING IQTISODIY MEXANIZMLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 256-263.

78. AT, I. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINING DAVLAT TOMONIDAN QO 'LLAB QUVVATLANISHI VA SOHAGA MINTAQALAR MIQYOSIDA INVESTITSIYA JALB QILISH SAMARADORLIGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 264-271.

79. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2024). СОЦИАЛЬНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ РЕШЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 347-352.

80. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2024). РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 355-359.

81. Sadilloevna, D. M., & Abidovna, A. S. (2024). THE STRATEGIC ROLE OF MANAGEMENT IN ENTREPRENEURIAL SUCCESS. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 220-225.

82. Avazovna, R. L. (2024). PENSIYA TA'MINOTINI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ORQALI PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MASALALARI. *Miasto Przyszlosci*, 55, 1469-1474.

83. Bobojonova, M. J., & Jumayeva, Z. B. (2025). YASHIL IQTISODNI O'RGANISHDA KERAKLI KORSATKICH XUSUSIYATLARI VA O'LCHOV TURLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 64-69.

84. Bobojonova, M. J., & Jumayeva, Z. B. (2025). YASHIL VA RAQAMLI OTISHLAR AVTOMOBIL EKOTIZIMINI QANDAY O'ZGARTIRMOQDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(3), 60-65.

85. Bobojonova, M. J., & Jumayeva, Z. B. (2025). O 'ZBEKİSTONDA QISHLOQ XO 'JALIGI SOHASINING HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 147-151.

86. Bobojonova, M. J., & Jumayeva, Z. B. (2025). YASHIL IQTISODIYOTDA IQLIM O'ZGARISHI BILAN PAYDO BO'LADIGAN MUAMMOLARNI OLDINI OLISH MAQSADIDA JORIY QILINGAN ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 108-113.

87. Bobojonova, M. J., & Jumayeva, Z. B. (2025). XIX VA XX ASRLARDA INSTITUTSIONALIZM IQTISODIY TA'LIMOTINING RIVOJLANISH DARAJASI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 62-67.